



UDK: 305:141.72:316.3

Adiba SHAYMANOVA,
Turon universiteti falsafa fanlari doktori, DSc
Kibriyo TURDIYEVA,
Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

Amaliy fanlar universiteti professori, falsafa fanlari doktori, DSc D.Amriddinova taqrizi asosida

JAMIYAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA GENDER TENGLIK - DAVR TALABI

Аннотация

Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida dunyoda gender tenglikni ta'minlash muhim masala ekanligi va uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash davr talabi ekanligini hamda bu borada amalga oshirilayotgan yangicha islohotlar va imkoniyatlar, jumladan, ularning jamiyatdagi o'rni va roli masalalari alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: BMT, gender tenglik, xotin-qizlar, jamiyat, globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy munosabatlar, ayollar mehnati, davlat boshqaruvi, jamoat tashkilotlari, oila, urf-odat, madaniya.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА — ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация

В данной статье рассматривается важность обеспечения гендерного равенства в условиях современной глобализации и его социально-философское значение. Также подчёркивается, что обеспечение правовой свободы и законных интересов женщин в Узбекистане является требованием времени. Особое внимание уделяется проводимым реформам и созданным возможностям, а также вопросам роли и места женщин в обществе.

Ключевые слова: ООН, гендерное равенство, женщины, общество, глобализация, социально-экономический, политико-правовой, социальные отношения, женский труд, государственное управление, общественные организации, семья, обычаи, культура.

GENDER EQUALITY AT A NEW STAGE OF SOCIETY'S DEVELOPMENT — A DEMAND OF THE TIME

Annotation

This article discusses the importance of ensuring gender equality in today's era of globalization and its socio-philosophical significance. It also emphasizes that guaranteeing the legal freedoms and legitimate interests of women in Uzbekistan is a demand of the time. Special attention is given to the ongoing reforms and newly created opportunities, as well as the role and position of women in society.

Key words: UN (United Nations), gender equality, women, society, globalization, socio-economic, political and legal, social relations, women's labor / women's work, public administration / state governance, public organizations, family, customs / traditions, culture.

Kirish. Jahonda XXI asr boshlariga kelib, gender tenglik masalalarini tadqiq etish aksariyat taraqqiy etayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hozirgi kunda xotin-qizlarning huquqiy erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish juda dolzarb masala hisoblanib, ularning iqtisodiy-siyosiy hamda ijtimoiy-huquqiy faoliyatini yuksaltirish jarayonlari kechiktirib bo'lmaz davr talabi hisoblanmoqda. Shu boisdan, xotin-qizlar masalasi jamiyat iqtisodiy-siyosiy hayotida, ijtimoiy munosabatlar, qolaversa millatlar, davlatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Mutaxassislar fikricha, xotin-qizlar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, shuningdek, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g'oyasiga o'tish evolyutsiyasi quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bilan izohlanadi. Ushbu bosqichlar o'ziga xos tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, dastavval "diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan". Shuningdek, "tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat

madaniyatining asoschisi deb atashadi". Shu boisdan ham, "ibtidoiy jamoa tuzumida mehnat taqsimotining vujudga kelishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig'uvchilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to'yimli o'simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg'ul bo'lgan. Rivoyatlarda olovni kashf etganlar erkaklar timsolida uchraydi. Ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmushda qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zaruratlarini bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan". Keyinchalik, ona urug'i davrida ayollarning mavqei orta borganini ko'rish mumkin. Ayol asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ro'zg'orni muhofaza qiluvchi, bola tarbiyalab, avlodning ko'payishini ta'minlovchi zot hisoblangan. Bu esa unga urug', qabila hayotida yetakchilik qilish imkonini bergan. "L. Morgan, F. Engels, G. Ploss, E.Teylor asarlarida ona urug'i davri (matriarxat)da ijtimoiy huquqiy va siyosiy masalalar ayollar qo'lida bo'lganiga ko'plab misollar keltiriladi".

Ayollar yoki xotin-qizlar mavzui bilan bog'liq asarlarda ijtimoiy mavzular emas, balki pand-nasihat, axloq masalalari, xotin-qizlar tarbiyasi va xulq-atvori masalalari

ustunlik qilganini ko'rish mumkin. Jamiyatning ayollardan iborat qismi oldida turgan qashshoqlik, ishsizlik, jinsiga ko'ra kamsitish va nihoyat, ayollarga zulm o'tkazish singari alohida ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, qator maqolalarning mavzusi bo'lsa-da, u yoki bu hodisalar bilan qandaydir bog'liqligi nuqtai nazaridagina ko'rib chiqiladi.

Muhokama. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ayollar erkaklarga nisbatan kamsitilgan, jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlatilgan davrlarni ifodalovchi ilmiy manbalarga duch kelamiz. Ming yillar davomida ayollar farzand ko'rib, ularni parvarishlab-tarbiyalash, oila xo'jaligini yuritish bilan cheklanganligi ma'lum. XX asrda ayollarni mana shunday qarashlardan ozod qiluvchi, oiladagi onalik, rafiqalik mas'uliyatidan voz kechmagan holda jamiyatda erkaklar bilan teng mehnat qilish, mehnatiga yarasha haq olish, dam olish, sog'liqni saqlash, ta'lim olish, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratdi.

Darhaqiqat, ayollarning bunday huquqlarga ega bo'lishini BMTda ishlab chiqilgan xalqaro huquq - "Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi" (1948) hamda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya (1979) kafolatladi deyish mumkin. Ushbu hujjatlar "xotin-qizlarga nisbatan har qanday cheklashlarni tugatib, ularning oilaviy holatidan qat'i nazar, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: siyosat, iqtisod, madaniyat va fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga chaqiradi". U davlatlarni xotin-qizlarning kamsitilishlariga qarshi milliy qonunchilik choralari bilan hamda oila va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikni tezlik bilan o'rnatishga, ularning huquqlari kamsitilishini saqlab qolishga imkon beruvchi ijtimoiy va madaniy modellarini o'zgartirish choralari ko'rishni tavsiya etadi. Shuningdek, oilaviy hayotda erkak va ayollar uchun bir xil huquq va burchlarni o'rnatish lozimligi ko'rsatilgan. "Balog'atga yetgan erkak va ayollar irqi, millati yoki dinidan qat'i nazar biron-bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganda ham, nikohda bo'lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar" (26-modda) deb ta'kidlangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin BMTning teng huquqli a'zosi qatorida MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, bu xalqaro hujjatlarni e'tirof etdi va o'z zimmasiga xotin-qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o'tkazmaslik majburiyatini oldi hamda shu maqsadda xotin-qizlar manfaatlarining huquqiy himoyasini belgilovchi tegishli qonunlarini qabul qildi. Respublikada xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sog'ligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olgan. "Zero, umummilliy siyosatning ma'nosi xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatini umumjamiyat ishiga aylantirish demakdir".

Gender tenglik bu – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Shu sababdan, insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lgan gender tengligi birinchidan, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan esa, barqaror rivojlanish negizida inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyo aholisining yarmini xotin-qizlar tashkil qilmoqda, bu insoniyat salohiyatining yarmiga teng ekanligidan dalolatdir. Shu boisdan, jahonning bir qator yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida xotin-qizlarni mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalariga keng jalb qilish orqali, jamiyatda

samaradorlik va iqtisodiy o'sishga erishishi mumkinligi alohida fundamental tadqiqot mavzulari sifatida o'rganilmoqda.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati xotin-qizlarning insoniyat taraqqiyotida o'rini to'g'ri anglagan holda xalqaro mexanizmlarni yaratishga ham harakat qilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979 yil 18 dekabrda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaning qabul qilinishi hamda mazkur konvensiyada xotin-qizlar va erkaklarning amaldagi tengligiga erishish, ya'ni gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlar tomonidan o'z huquqlaridan amalda foydalanish masalalariga bog'liq bo'lgan muammolarni aniq-ravshan belgilashda muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekistonda xotin-qizlarni barcha jabhada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va moddiy asos yaratildi. Jumladan, bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi va milliy qonunchiligimiz asoslari takomillashtirildi. Yurtimizda xotin-qizlar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, ta'lim olish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 30 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, 4 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ga yaqin Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori qabul qilindi. Yangilangan Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar hamda erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va boshqaruv hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab qo'yildi. Shu boisdan, mamlakatimizda gender tenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning huquqlari bilan bir qatorda xotin-qizlarning mavqeini oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlar jamiyatning xar bir sohasida: oilada, ishda muhofaza qilinishi ko'zda tutilmokda. Oilada ayol kishi hamma davrda qiz bolalik, kelinlik, onalik va ayollik davrida birdek muhofazada, xavfsiz hayot kechirsagina ish joyida namuna ko'rsata oladi. Shu munosabat bilan bugungi kunda chiqarilayotgan har bir qaror va qonunlarda alohida gender tenglik masalasiga e'tibor berilmoqda. Binobarin, keyingi yillarda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi rolini oshirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan;

- xotin-qizlar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- xotin-qizlarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- xotin-qizlarning gender tenglik va ular huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- mas'ul mansabdor shaxslarni huquqni qo'llash amaliyotida ularning bajarilishini ta'minlash uchun tegishli huquqiy normalar asosida o'qitish.

Shuningdek, mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlarini, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlarining qabul qilindi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida "Xalqimiz azaldan muqaddas Ona zotiga, xotin-qizlarga doimo yuksak ehtirom ko'rsatib keladi. Ayolga bo'lgan hurmat-e'tibor - bu avvalo oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lgan hurmat-e'tibor ifodasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi", deb ta'kidlaganliklari bejiz emas.

Zero, bugungi dunyoda yuz berayotgan tahlil va muammoli bir davrda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda. Mamlakatimizda gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bir qator ijobiy siljishlar yuz berayotganini ta'kidlash lozimdir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, hozirgi kunda har bir ayol demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart. Shu sababli, eng quvonarlisi "O'zbek ayolining ismi-sharifi palatasida" "O'zbekiston Qahramoni", "Deputat", "Senator", "Vazir", "Vazir o'rinbosari", "Akademik", "Hokim", "Olima", "Tadbirkor", "Direktor" atamaları qo'shib aytilmoqda".

Shuningdek, bugungi kunda yurtimizdagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xotin-qizlarimiz orasidan Oliy Majlis Senatida - 17 nafar senator, Qonunchilik palatasida - 21 nafar deputat faoliyat olib bormoqda. Mahalliy kengashlarda esa xalq vakillarining 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etadi.

Xotin-qizlarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizdan ziyodni, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohalarida 72 foizni, qishloq xo'jaligida 45 foizdan ortiqni, sanoatda 38 foizni tashkil etmoqda. Yurtimizdagi jami tadbirkorlik subyektlari tarkibida tadbirkor ayollarning ulushi 29 foizdan iboratdir.

Aytish mumkinki, mamlakatimizda globallashuv sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar orasida xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqei kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish kabi o'zgarishlar e'tiborga loyiq. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barqarorligini ta'minlash va ularni amalda qo'llash uchun, avvalambor uning huquqiy asoslarini yaratish davlatning ichki funksiyasini amalga oshirishdagi o'ziga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 69-maqсад sifatida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" keltirib o'tilgan. Shu munosabat bilan, jamiyatimizda ayollarga qaratilayotgan

e'tibor, ularning bilim olishi, kasb tanlashi, mehnat qilishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun yaratilayotgan sharoitlar natijasida bugun xotin-qizlarimizda har jabhada faollik sezilmoqda, bir so'z bilan aytganda, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib, salohiyatli xotin-qizlar soni tobora kengaymoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil 2-sentabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, gender tenglik bo'yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uyda zo'rvonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida 2024 yil ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil qilingani fikrimizning dalilidir.

Xulosa. Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalab qolmasdan, har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon yaratib berish kerakligini ta'minlab beradi. Aynan gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Takliflar. Birinchidan, bugungi yangi ijtimoiy sharoit va yangi maqsadlarda ayollarning siyosat va hokimiyatdan uzoqlashishiga, ularning hayotiy faoliyatining barcha jabhalarida gender diskriminatsiyasiga barham berishga ko'maklashish zarur. Ikkinchidan, aholi o'rtasida xotin-qizlarni kamsituvchi vaziyatlarni keltirib chiqaradigan gender stereotiplarini oldini olish va bu borada ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 217 А (III) Резолюцияси. 1948 йил 10 декабр// <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигirmanчи ялпи мажлисидаги нутқи.(2019 йил 21 июнь). [https://nrm.uz/contentf?doc=600968_o%E2%80%9898zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlis_senatining_yigirmanchi_yalpi_majlisidagi_nutqi_\(2019_yil_21_iyun\)](https://nrm.uz/contentf?doc=600968_o%E2%80%9898zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlis_senatining_yigirmanchi_yalpi_majlisidagi_nutqi_(2019_yil_21_iyun)).
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 02.09.2019 йилдаги ЎПҚ-562-сон. <https://lex.uz/docs/4494849?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 02.09.2019 йилдаги ЎПҚ-561-сон. <https://lex.uz/docs/4494709>.
5. Бебель А. Социализм и женщина. М.: Госполитиздат. 1959. -С.49. Гендер тенгликни таъминлаш ва хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шакллариға барҳам бериш. <https://buxoro.sud.uz/gender-tenglikni-ta%CA%BCminlash-va-xotin-qizlar-huquqlari-kamsitilishining-barcha-shakllariga-barham-berish/>.
6. Нерсесянц. История идей правовой государственности. М.: 1993. с.59.
7. Shaymanova Adiba Ergashevna*; Dovranova Oysulton Dovrankulovna. "THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNMENT AND PUBLIC GOVERNANCE" AJMR: A s i a n J o u r n a l o f M u l t i d i m e n s i o n a l R e s e a r c h. ISSN: 2278-4853 Vol 10, Issue 8, August, 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699.
8. Холматов М. Жамиятда аёлларнинг ўрни (тарихий-фалсафий таҳлил). Экология ва аёл. Фарғона. 2001. 109-110 бетлар
9. Ўразалиева Г.. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти.:Тошкент 2009 йил.